XITOY TILIDAGI 没…（可/好）说 QOLIPINING STRUKTUR-SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Badalbayev Dilshod Farxod o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Xitoshunoslik oliy maktabi tayanch doktoranti

Xitoy tilidagi turg‘un birikmalarning (xiguanyongyu, 习惯用语) muhim qismi o‘zgarmas yadro va o‘zgaruvchan bo‘shliqdan tuzilgan qoliplar sifatida shakllanadi. Qoliplar grammatikasiga ko‘ra, qolip yaxlit ma’no tashiydi va bu ma’no uning tarkibiy qismlari ma’nosining oddiy yig‘indisiga teng kelmaydi (Goldberg, 1995). Ushbu tezisda 没…（可/好）说 (méi … kě/hǎo shuō, “gapirishga arzigulik narsa yo‘q”) qolipining tuzilishi, semantikasi va pragmatik vazifalari «去有风的地方» (Meet Yourself, 2023) teleseriali dialoglari asosida tahlil qilinadi.

Serial korpusida tahlil qilingan to‘rt qolipning jami 113 ta qo‘llanishidan 41 tasi (36,3%) aynan shu qolipga to‘g‘ri keladi, ya’ni u korpusda eng chastotali qolip hisoblanadi. Qolip tarkibida shakllangan kichik birliklar uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruh ko‘plik va variantlilik bilan xarakterlanadi: 没什么说的 (méi shénme shuō de), 没什么好说的, 没什么可说的, 没啥话说 hamda qisqargan 没话说, 没话可说 shakllari. Ikkinchi guruhni nisbatan kam uchraydigan, lekin semantik jihatdan barqaror 没二话 (méi èrhuà, “e’tirozsiz”) tashkil etadi. Uchinchi guruhga yuqori darajada grammatiklashgan 没的说 (méi de shuō) va 没的说的 (méi de shuō de) kiradi.

Qolipning umumiy baholovchi-pragmatik ma’nosi “gapirishga arzimaydi”, “aytishga hojat yo‘q”, “shikoyat yo‘q” tarzida umumlashtiriladi. 什么, 啥, 话 kabi to‘ldiruvchilar qolipga yangi mazmun kiritmaydi, balki so‘zlovchining baholovchi pozitsiyasi va nutq ohangini kuchaytiradi. Kontekstga qarab qolip turli pragmatik vazifalarni bajaradi. Masalan, qat’iy buyruq ohangida: 阿桂婶皱着眉说：“没什么好说的，这事就这么定了！” (Āguìshěn zhòuzhe méi shuō: “méi shénme hǎo shuō de, zhè shì jiù zhème dìng le!”) – “Agui xola qovog‘ini solib: «Aytishga gap yo‘q, bu ish shunday hal bo‘ldi!» dedi” (6-qism). Ijobiy baholashda: 晓夏的木雕做得真好，没什么可说的，全村人都夸 (Xiǎoxià de mùdiāo zuò de zhēn hǎo, méi shénme kě shuō de, quáncūnrén dōu kuā) – “Xiaoxianing yog‘och o‘ymakorligi juda yaxshi, aytadigan gap yo‘q, butun qishloq maqtaydi” (6-qism). Ishonch bilan murojaat qilishda: 没什么说的，咱俩一起把民宿弄好 (méi shénme shuō de, zánliǎ yìqǐ bǎ mínsù nònghǎo) – “Gap yo‘q, ikkimiz birga mehmonxonani yaxshilaymiz” (7-qism).

Bu misollar bir xil shaklli qolip ijobiy baholash, itoatkorlik, qat’iy buyruq va e’tiborsizlik kabi turlicha, ba’zan bir-biriga zid pragmatik ma’nolarni ifodalashini ko‘rsatadi. Bu hodisa qoliplar grammatikasidagi ko‘p ma’nolilik (polisemiya) tushunchasini xiguanyongyu darajasida tasdiqlaydi.

Uch guruh Hopper va Traugottning grammatikalashuv darajalari (degrees of grammaticalization) tushunchasini yaxshi ifodalaydi (Hopper, Traugott, 2003). Birinchi guruh birliklari nisbatan shaffof bo‘lib, tarkibiy qismlari (没, 什么, 说) o‘z leksik ma’nosini saqlaydi va ular orasida erkin variantlilik mavjud. 没二话 oraliq bosqichni egallaydi: 没三话, 没多话 kabi shakllar uchramaydi, lekin 二话 so‘zining mustaqil ma’nosi boshqa kontekstlarda ham tushunarli bo‘lib qoladi. 没的说 va 没的说的 birliklarida esa 的 zarrachasi odatiy aniqlovchi vazifasidan chekinib, faqat qolipni yakunlash vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, 没…（可/好）说 qolipi baholash, shikoyatsizlik, itoatkorlik va ishonch bilan murojaat kabi pragmatik vazifalarga ixtisoslashgan bo‘lib, grammatikalashuvning turli bosqichlaridagi birliklarni birlashtiradi. Natijalar xitoy tilini o‘qitishda va audiovizual tarjimada qolipni so‘zma-so‘z emas, vaziyatga mos funksional ma’noda (“gap yo‘q”, “e’tiroz yo‘q”, “a’lo”) berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goldberg, A.E. Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure. – Chicago: University of Chicago Press, 1995. – 271 p.

2. Hopper, P.J., Traugott, E.C. Grammaticalization. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 300 p.

3. 去有风的地方 (Meet Yourself) [Teleserial]. Rej. Ding Ziguang. – Xunan teleradiokompaniyasi / Mango TV, 2023.